

**TALABALARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHDA “YASHIL SHAHAR”NING O’RNI VA
ZAMONAVIY TA’LIM ISTIQBOLLARI**

Mamaraximov Oybek Muratovich

b.f.d., dotsent, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Ekologik monitoring kafedrasi mudiri

oybekmamaraximov74@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda “Yashil shahar”ning o’rni va zamonaviy ta’lim istiqbollari o’ld fikrlar yoritilgan. Shuningdek, professor-o’qituvchilardan oliy ta’lim jarayonida ekologik ta’limni tashkil etishda innovatsion, tizimli, tashabbuskor, ijodiy yondashuvlar talab etishi ta’kidlab o’tilgan. Talabalarning ekologik kompetensiyalarini izchil rivojlantirib borishni ta’minlash, ularda ekologik kompetentlikni rivojlantirishga yondashuvlarning o’ziga xos xususiyatlari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: talabalar, ta’lim, ekologiya, kompetensiya, “Yashil shahar”, rivojlantirish, tizimli yondashuv.

Oliy ta’lim muassasalari ta’lim tizimida bo’lajak ekologiya sohasi xodimlarini tayyorlashda “Yashil shahar”ni barpo etish va uning ekologik muammolari bilan bevosita bog’liqligi zamonaviy ta’lim istiqbollari masalalaridan sanaladi. O’quv jarayoni bo’lajak ekologiya sohasi xodimlari ongiga yanada ko’proq ta’sir qilayotgan globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini anglashda o’ziga xos xususiyatga ega. Yangi O’zbekistonda “Yashil shahar” va ekologik muammolarni bartaraf etishning o’zaro ta’sirini o’rganish hamda mamlakatning urbanizatsiya jarayonida barqaror rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida “Yashil shahar” va ekologik siyosatning asosiy vositalari, shaharning ekologik imijini takomillashtirish, “Yashil shahar” konsepsiyasi, ijtimoiy hamkorlikning samaradorligi yuzasidan qayd etilgan tavsiflar alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, Yangi O’zbekistonda “Yashil shahar” va ta’limning ekologik integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston siyosatida so'nggi yillarda qabul qilingan Farmoyishlar, qarorlar va davlat dasturlari ekologik muammolarni bartaraf etish yuzasidan ustuvor vazifalarni belgilab olgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda qabul qilgan ekologik muammolarni bartaraf etishga oid dasturi shular jumlasidandir [1]. “Yashil shahar”ni barpo etishni rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Ushbu hujjatda urbanizatsiyaning ekologik ta'sirini kamaytirish va aholining ekologik ongi darajasini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar belgilangan.

Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda “Yashil shahar”ni barpo etish va ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashuviga oid ta'limni tashkil etish dolzarbligini yo'qotmaydigan masaladir. Aholi zichligi oshgani sari tabiat resurslariga bo'lgan ehtiyoj va ekologik muammolar yanada keskinlashganligi bois “Yashil shahar”ni barpo etishda aholining ekologik mas'uliyatini kuchaytirish zarur. Ularning yashash muhitini yaxshilash va tabiatga zarar yetkazmaslik tamoyillariga asoslangan chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekiston konsepsiyasi doirasida yangi “Yashil shahar”ning bunyod etilishi zamonaviy shaharsozlikning yorqin namunasi hisoblanadi [1]. Urbanizatsiya va ekologik muvozanat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Suningdek, BMT tomonidan qabul qilingan va 2030-yil barqaror rivojlanish kun tartibi hujjatida [6] shahar ekologiyasini yaxshilashda xalqaro hamkorlik hamda global yondashuvning ahamiyati ta'kidlab o'tilgan. Ushbu hujjatda ekologik barqarorlik va aholi turmush tarzining farovonligini ta'minlash bo'yicha belgilangan maqsadlari yoritib o'tilgan.

“Yashil shahar”ni barpo etish g'oyasi iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikka bir vaqtda erishish uchun muhim yechim sanaladi.

“Yashil shahar” g'oyasi asosida talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishda asosiy mexanizmlar, strategiyalar va texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Jumladan: shahar boshqaruvi va urbanizatsiya siyosati bo'yicha hukumat hujjatlari va strategik rejalashtirish materiallarini o'rganib chiqish; “Yashil shahar”, tarixiy meros bo'yicha akademik adabiyotlar va ilmiy maqolalarni tahlil etish; talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishda yashil hududlarni rivojlantirish, atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha xalqaro

tajriba va innovatsion texnologiyalarni oʻrganib chiqish; talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishiga oid amaliy misollar, shaharlararo taqqoslash tahlillari, empirik ma'lumotlarni oʻrganib chiqish; anketa so'rovnomalari va ekspertlar fikrlari yordamida olinadigan sifatli ma'lumotlarni tahlil etish zarur.

Yangi O'zbekistonda “Yashil shahar”ni barpo etish va ekologik muvozanat o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishning asosiy jihatlari, ahamiyati, shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida tajribalarning yangi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Bu tadqiqot zamonaviy urbanizatsiya muammolari yechimiga kompleks yondashuv asosida javob topishga qaratilgan dolzarb masalalarni qamrab oladi. Jahon tajribalari miqyosida ekologik muammolarni bartaraf etish va shahar yashash muhiti sifatini oshirish masalalari tadqiq etiladi. Xususan, tadqiqotchilar Allen va Ko'hran tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar davlat siyosati va boshqaruv tizimidagi ekologik muammolarni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lgan [2]. Ushbuda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun davlatlarning boshqaruv shakllarini qayta ko'rib chiqish zarurligi qayd etilgan. Kolding va Bartellar tomonidan olib borilgan tadqiqotda urbanizatsiya jarayonlarida yashil hududlarning ahamiyatini yoritadi [4]. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, yashil hududli shahar nafaqat estetik muhitni yaxshilaydi, balki ekologik tizimning muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy yondashuv Yangi O'zbekistonda yashil hududlarni, ya'ni “Yashil shahar”ni rivojlantirish bo'yicha takliflarni amalda qo'llashga asos bo'ladi. Chiyezura shahar parklarini va aholi o'rtasida ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi ijobiy o'zgarishlarni chuqur tahlil qiladi [5]. U aholining hayot sifati va ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini ilmiy asoslagan. Ushbu tadqiqot g'oyalari Yangi O'zbekistondagi yashil hududlarning aholi turmush tarzi uchun foyda keltirishi mumkinligini tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotchilar tomonidan tabiatni yashillashtirish va ekologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha olib borilgan izlanishlar muhim ahamiyatga ega [6]. Ushbu tadqiqotda aholi orasida ekologik madaniyatni takomillashtirishning ijtimoiy ahamiyati va uning shahar rivojlanishidagi o'rni tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot Yangi O'zbekistonda “Yashil shahar”ni barpo etish, ekologik barqarorlikni rivojlantirish va unda aholining faol ishtirokini ta'minlashga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Yang Jao, Makbrayd va Gong tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar urbanistik hududlarda yashil hududlarning ahamiyati va ko'rinuvchanligi masalalariga

bag'ishlangan [8]. Tadqiqot tahlillari Yangi O'zbekistonda “Yashil shahar”ni barpo etishni loyihalashtirish va ulardan samarali foydalanishda muhim ro'l o'ynaydi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, “Yashil shahar”ni barpo etishni rivojlantirish masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda o'rganilgan masalalardan. Xususan, xalqaro tadqiqotlar shahar ekologiyasi sohasida xalqaro tajribani o'rganish imkonini bersa, mahalliy davlat hujjatlari va tadqiqotlar Yangi O'zbekistonning o'ziga xos ekologik xususiyatlarini inobatga olishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur ilmiy tahlillar Yangi O'zbekistondagi ekologik muammolarni bartaraf etishda samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam berdi.

“Yashil shahar”ni barpo etish insonlarning urbanistik muhitda shakllantirgan ijtimoiy va madaniy qadriyatlarining ifodasi sanaladi. Shu bois shahar aholisi yashab turgan hududlarining tarixiy, madaniy, me'moriy o'ziga xosliklarini qadrlashi, asrashi va rivojlantirishi orqali shahar identitetini takomillashuviga hissa qo'shadi. Shuningdek, ular hududlarning jozibadorligini oshishiga sabab bo'ladi. “Yashil shahar”ni barpo etish aholining o'zaro hurmat va birdamlik tamoyillariga asoslanadi. Xususan, turli millatlar, dinlar va madaniyatlar o'rtasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. “Yashil shahar”ni barpo etish doirasida ekologik mas'uliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolarning tabiatni asrash, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizligiga bo'lgan intilishi shahar barqarorligini ta'minlaydi. Tarixiy obidalar, madaniy meros va milliy qadriyatlarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish “Yashil shahar”ni barpo etishning muhim qismi hisoblanadi. “Yashil shahar”ni barpo etish shahar infratuzilmasi va aholiga xizmat ko'rsatish sifatining yuqori darajasini talab qiladi. Bu transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarda namoyon bo'ladi.

Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda “Yashil shahar”ning o'zni bo'yicha ta'limni tashkil etishda zamonaviy shaharsozlik va uning ekologik muammolarini bartaraf etishda muhim masala hisoblanadi. “Yashil shahar”ni barpo etishning ahamiyati shundaki, u nafaqat shahar hayotini yanada qulay va samarali qiladi, balki ijtimoiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi. Urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining oqilona boshqarilishi va aholi turmush tarzining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shaharlarning barqaror

rivojlanishini ta'minlash uchun ekologik omillarni inobatga olish zarur. Ushbu masala quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqilishi mumkin:

Yashil hududlarni kengaytirish. Shahar hududlarida bog'lar, xiyobonlar va boshqa yashil zonalarini ko'paytirish ekologik muammolarni bartaraf etishning muhim omillaridan biridir. Yashil hududlar atmosfera ifloslanishini kamaytiradi, iqlimni mo'tadillashtiradi va aholiga dam olish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish. Suv, elektr energiyasi va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirish lozim. Bu borada suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, qayta tiklanadigan energiyaga o'tish, sanoatda chiqindisiz texnologiyalardan foydalanish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin [3].

Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish mumkin. Shuningdek, chiqindilarni alohida yig'ish tizimini joriy qilish, aholini chiqindilarni qayta ishlashga oid ma'lumot bilan ta'minlash va rag'batlantirish, zamonaviy chiqindilarni qayta ishlash zavodlarini qurish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Transport tizimini ekologiklashtirish. Shahar transport tizimini ekologik xavfsiz qilish muhim ahamiyatga ega. Elektromobillarni ommalashtirish va ular uchun infratuzilma yaratish, jamoat transportini rivojlantirish va uning sifati ustida ishlash, velosiped yo'laklarini kengaytirish va piyodalar uchun qulay sharoit yaratish o'laroq yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq.

Atmosfera havosini tozalash va nazorat qilish. Shahar hududida atmosferaga zararli gazlar chiqindisini kamaytirish uchun sanoat korxonalarida filtr tizimlarini joriy etish va avtomobillardan chiqayotgan gazlarni nazorat qilish tizimini kuchaytirish lozim.

Ekologik ta'lim va ongni oshirish. Ekologik muammolarni bartaraf etishda aholining ekologik ongi va mas'uliyatini oshirish muhimdir. Bu maqsadda maktab va oliy ta'lim tizimida ekologiya bo'yicha maxsus fanlarni joriy etish, aholi uchun ekologik seminarlar va treninglar tashkil etish, ijtimoiy axborot vositalarida ekologik targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

Ekologik muammolarni bartaraf etish masalalari kompleks yondashuvni taqozo etadi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil hududlarni

kengaytirish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali shaharlar barqaror rivojlanishi mumkin.

O'zbekiston tajribasida “Yashil shahar”ni barpo etish va ekologik muammolarni bartaraf etish mamlakatning urbanizatsiya jarayonida ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. “Yashil shahar”ni barpo etish – tarixiy meros, san'at, adabiyot va an'anaviy qadriyatlarni aks ettiruvchi omil – shahar aholisining ijtimoiy hayotini boyitib, shahar imijini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik muammolarni bartaraf etish saqlash bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar, yashil hududlarni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyalari shahar muhitining sog'lomligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida shahar aholisining turmush tarzi yaxshilanadi va xalqaro maydonda O'zbekistonning ekologik imijini takomillashuvida muhim ro'l o'ynaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asoslanib, “Yashil shahar”ni barpo etish va ekologik muammolarni bartaraf etishning uyg'unlashuvi Yangi O'zbekistonda ekologik barqaror muhitni rivojlantiruvchi kaliti sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'ladi. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda “Yashil shahar”ning o'rni va zamonaviy ta'lim istiqbollari sifatida ekologik muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- shahar madaniy merosini asrash va targ'ib etishda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv platformalardan foydalanish;
- yashil hududlarni kengaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha samarali siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish;
- madaniy tadbirlar, festival va ko'rgazmalar orqali shahar ekologiyasi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;
- ekologik va madaniy loyihalarda jamoatchilik ishtirokini oshirish, shahar boshqaruvida fuqarolar va ekspertlar fikriga e'tibor qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Yangi O'zbekiston massivida ekologik muvozanatni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi. Toshkent: Qaror. 2022.

2. Allen, J., & Cochrane, A. (2010). Assemblages of state power: Topological shifts in the organization of government and politics. *Antipode*, 42(5), 1071-1089. <https://doi.org/10.1111/j.1467-8330.2010.00794>.

3. Murtozayeva M.M. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2022. – 4-son. – B. 710-714.

4. Colding, J., & Barthel, S. (2013). The potential of urban green commons in the resilience building of cities. *Ecological Economics*, 86, 156-166. <https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2012.10.016>

5. Chiesura, A. (2004). The role of urban parks for the sustainable city. *Landscape and Urban Planning*, 68(1), 129-138. <https://doi.org/10.1016/j.landurbplan>

6. Rozanova, L. P. (2021). Ekologik muvozanat va shahar madaniyatini shakllantirish. *Toshkent Ekologik Institut Materiallari*, 4, 57-63.

7. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. Retrieved from <https://www.un.org/sustainabledeve>

8. Yang, J., Zhao, L., McBride, J., & Gong, P. (2009). Can you see green? Assessing the visibility of urban forests in cities. *Urban Forestry & Urban Greening*, 8(3), 201-212. <https://doi.org/10.1016/j.ufug.2009.02.003>